

## GUY DE MAUPPASSANT (BEL AMI) «AZIZIM» ASARIDA PERSONAJLAR TASVIRI

Sultonova Z.O.

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti

Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasи

2- bosqich (fransuz tili) yo‘nalishi talabasi:

Axmedov X.A.

Ilmiy rahbar: O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi

### ABSTRACT

In this article, we have currently considered the most controversial issue of defense in terms of phraseology that are used in the field of translation studies as well as the combination of words along the path devoted to the translation problem.

**Key words:** Bel Ami, Grands Boulevards, Bigre.

Hénri Renè Albert Guy de Maupassant - fransuz yozuvchisi 1850-yil 5 -avgustda Fransiyaning Depp shahri yaqinidagi Miromenil qo‘rg‘onida tavrallud topgan. Gi de Mopassanining otasining ismi Gustav de Mopassan Normandiyaga o‘rnashib qolgan lotaring dvoryanlarining qashshoqlashgan qavmidan edi. U uchiga chiqqan xotinboz bo‘lib keyinchalik oilasini tashlab ketgan. Mopassanining Onasi Haura le Puatven esa ziyoli oiladan edi. Gi de Mopassan bir yillik ijodi davomida 6 ta roman, 18 ta to‘plamga kiritilgan 300 ga yaqin novella yozgan. Bundan tashqari, Mopassan hikoyalar, pyesalar, she’rlar, ocherklar va maqolalar borasida ham samarali ijod qilgan.

Gi de Mopassanning ko‘plab asarlari ham o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjima qilingan asarlaridan menga eng yoqqan romani bu "Bell Ami" bo‘lib ushbu asar menda juda katta ta’ssurot qoldirdi. Ushbu asar (1885-yilda yozilgan) ushbu asarni o‘zbek tiliga tarjimon Ibrohim G‘ofurov tarjima qilgan.

Ushbu roman yuqori martabaga ko‘tarilishini orzu qiluvchi qahramonning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Asarning bosh qahramoni hech qanday alohida iste’dodga ega bo‘lmadasa birgina kelishgan tashqi ko‘rinishi orqali har qanday xonimning qalbini zabit eta olardi va uning vijdoni har qanday yomonlikni kechira olardi. Bu dunyoda kuchli bo‘lish uchun tashqi ko‘rinishning o‘zi yetarli deb hisoblardi. Har qanday asarni yuksak darajaga olib chiqishda va kitobxonlarni jalb qilishda eng katta rol o‘ynaydigan jihatni bu uning sarlavhasi

hisoblanadi. Mopassanning Bell Ami asarini özbek tiliga Ibrohim G‘ofurov tomonidan "Azizim" deb tarjima qilingan lekin bizning tarjimamizda "Bell Ami" iborasini kitobxonlarni yanada jalb qilish uchun "Ma'shuqa" variantini tanladik.

Biz tarjima jarayonida asardagi personajlar tasvirida qo'llanilgan tasvir vositalarga to'xtalib o'tdik.

### Masalan:

Paris. mois de juin. Il faut chaud. Georges Duray sort d'un restourent des Grands Boulevards. Les femmes se retournent sur sa beauté. Mais, en poche, il ne lui reste que trois, francs quarante. Cela représente deux dîners sans déjeuners ou deux déjeuners sans dîners, au choix. Les repas du matin étant moins chers que ceux du soir, il choisit cette option.

Ushbu jumlni Ibrohim G‘ofurov "Azizim" romonida quyidagicha yoritgan.

« U ko'chaga chiqqach, endi nima qilsam ekan, degandey o'ylanib to'xtab qoldi. Bugun 28-iyun birinchi chislagacha kissasida atigi uch frank 40 santim pul qolibdi. Bunga ikki marta tushlik qilish mumkin, lekin unda nonushtadan mahrum bo'lardi, yoki 2 marta nonushta qilsa, tushlik qilmasligi kerak bo'ladi. Qaysi biri hush kelsa bu yog'i ixtiyorin ».

Biz esa ushbu jumlni kitobxonlarga yanada ma'qulroq keladigan variantini tanladik va quyidagicha tarjima qildik.

Parij. Iyun oyida iqlim judayam issiq bo'ladi. Jorj Dyurey Grands Boulevards restaranidan chiqdi. Atrofdagi odamlarni va ayniqsa ayollarni o'zini kelishgan ko'rinishi bilan o'ziga jalb qilardi. Ammo uning cho'ntagida 3 frank 40 sent qolgan edi. Bu pulga u ikki marotaba tushlik qilishi mumkin edi. Lekin unda nonushtadan maxrum bo'lardi, yoki ikki marotaba nonushta qilsa, tushlik qilmasligi kerak bo'lardi. Nonushta arzonroq bo'lganligi uchun tushlikdan voz kechish qaroriga keldi.

Asarda tasvirlangan asosiy qaxramonlarining holatini his qilishi uchun tarjimon vaziyatga mos so'zlarni tanlay olishi kerak. Biz ushbu jumlada shu muamoni hal qilish uchun kerakli so'zlar tanlash muammosiga to'xtalib o'tdik. Asardagi qahramonlarning kechinmalari bu o'quvchiga beradigan katta ta'ssurot. Shu nuqtayi nazardan tarjimon asar qaxramonlarining kechinmalarini tasvirlashga alohida e'tibor qaratishi kerak. Biz ushbu jumla tarjimasida qaxramon holati tasvirlarini o'quvchiga yaxshiroq tushuntirish uchun so'z tanlashda quyidagicha to'xtalib o'tdik. Tasvirlarda sinonimlarni qo'llash tarjimon mahoratini ko'rsatib beradi. Aynan bitta so'zni takrorlash o'quvchida zerikish va bezish holatlarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham tarjimon xorij tilini yaxshi bilishi va o'z ona tilida so'zlarni ayniqsa sinonimlarni qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Ushbu asardagi bosh qahramon Jorj Dyurua – Sobiq askar. U o'zini jurnalistikada sinab ko'radi va butun roman davomida boy va nufuzli ayollarning turmush o'rtog'iga

aylanib, shu orqali yuqori martabaga erishadi. Bora bora badavlat insonga aylangach, zodagonlik unvonini ham sotib oladi. Asarda bu obraz iste'dodi yo'q, axloqsiz yigit sifatida yoritib o'tiladi.

Ushbu asarda Lorine de Marel Klotildaning qizi bo'lib, u Jorj Dyuruaga « Bel Ami » laqabini bergen.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. "Azizim" (roman) Toshkent. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san 'at nashriyoti 1987.
2. Guy de Maupassant Bel-Ami roman La Bibliothèque électronique du Québec Collection À tous les vents Volume 510 : version 1.01. 1985